

## Яшиликлимжамғармасибилан ҳамкорликни ривожлантириш

2019 йил 22 майда Ўзбекистон Миллий матбуот марказида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Гидрометеорология хизмати маркази (Ўзгидромет) “Яшиликлимжамғармасибилан ҳамкорликни ривожлантириш” мавзусида матбуот анжумани ва давра суҳбати ўтказди.

Тадбирнинг мақсади Яшил иқлим жамғармаси (ЯИЖ) фаолиятини ёритиш, ЯИЖ учун лойиҳавий таклифлар ишлаб чиқиш билан боғлиқ масалаларни муҳокама қилишдан иборат бўлди. Матбуот анжуманида республика манфаатдор вазирлик ва идоралари вакиллари, олимлар ва журналситлар қатнашди.

Иқлим ўзгариши замонамизнинг асосий таҳдидларидан бирига айланган. Жаҳон метеорология ташкилоти маълумотларига кўра кузатувлар тарихидаги энг илиқ 20 йил сўнгги 22 йилга тўғри келган. Энг иссиқ тўрт йил эса охириги тўрт йилга тўғри келган. Иқлим ўзгаришининг бошқа яққол белгиларини ҳам кузатиш мумкин, булар – денгиз сатҳининг кўтарилиши, музликларнинг эриши, Ер куррасининг барча минтақаларида кузатилаётган экстремал метеорологик ҳодисалар (сув тошқинлари, қурғоқчилик ва бош.). Табиий офатлар хавфининг ортиши, ҳодисаларнинг мисли кўрилмаган кўлами ҳам бунга далилдир. Агар бугун қатъий чоралар кўрилмаса, иқлим ўзгаришига кейинги мослашиш катта сарф-харажат ва ҳарқатларни талаб қилиши мумкин.

Марказий Осиё ҳам иқлим ўзгарувчанлигининг жорий кучайиши билан боғлиқ, ҳам глобал иқлим ўзгаришининг узоқ муддатли таъсирига мойил минтақа ҳисобланади. Ўтган асрнинг ўрталаридан Ўзбекистонда иқлим илиши тенденцияси кузатиб келинмоқда ва ҳар 10 йилда ўртача йиллик ҳарорат  $0,29^{\circ}\text{C}$  га ошиб бормоқда. Сўнгги ўн йилликлар давомида иқлим ўзгариши билан боғлиқ салбий ҳодисалар кўпроқ рўй бермоқда ва улар сув ресурслари танқислигининг кучайиши ва қурғоқчилик ҳодисаларининг тез-тез такрорланишига олиб келмоқда.

Шу муносабат билан иқлим ўзгариши олдини олиш ва унинг кузатилаётган оқибатларига мослашиш бўйича зарур чоралар ишлаб чиқиш ва амалиётда қўллаш катта аҳамият касб этади.

Яшил иқлим жамғармаси (ЯИЖ) глобал миқёсдаги ташаббус бўлиб, у кам-углеродли ва иқлимий барқарор ривожланишни молиялаштириш орқали иқлим ўзгариши масалаларини ҳал этишга қаратилган. Жамғарма ривожланаётган мамлакатларда иссиқхона газлари ажратмалариникисқартиришга ҳамда ҳимояга муҳтож ҳамжамиятларнинг иқлим ўзгаришининг муқаррар оқибатларига мослашишига ёрдам бериш мақсадида 2010 йил Канкун шаҳрида 194 мамлакат ҳукуматлари томонидан ташкил қилинган. Бош қароргоҳи Жанубий Кореянинг Сонгдо шаҳрида жойлашган.

ЯИЖ иссиқхона газларини қисқартириш ёки уларни чиқаришнинг олдини олиш орқали иқлим ўзгариши оқибатларини енгиллаштириш ва унинг салбий таъсирларига мослашишга қаратилган лойиҳаларни кўриб чиқади ва молиялаштиради.

Ўзбекистонда ЯИЖ билан ишлаш учун Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Гидрометеорология хизмати маркази (Ўзгидромет) ваколатли орган ҳисобланади. У ваколатлари доирасида ЯИЖ билан ўзаро алоқаларни таъминлайди, хусусан тўғридан-тўғри молия олиш учун миллий ташкилотларни ЯИЖда аккредитациядан ўтказиш бўйича сўров юборди ҳамда ЯИЖга тақдим этиш учун давлат манфаатларига жавоб берадиган тўлиқ кўламли лойиҳавий таклифларни тайёрлаш юзасидан талабномаларни кўриб чиқади.

Ҳозирги вақтга келиб ЯИЖга тақдим этиш учун 3 та лойиҳа тайёрланди. Улар Миллий мослашиш режасини ишлаб чиқиш, қишлоқ хўжалигини агрометеорологик таъминлаш ва иқлимга боғлиқ табиий офатлар хавфини камайтириш масалалари билан боғлиқ.

Тармоқларнинг иқлим ўзгаришига мослашиши бўйича миллий режаларни тайёрлаш соғлиқни сақлаш, қишлоқ ва сув хўжалиги, табиий офатлар хавфини бошқариш ва уй-жой қурилиши энергия самарадорлиги борасидаги мослашиш чора ва ҳаракатларини ўз ичига олади.

Матбуот анжумани ва давра суҳбати доирасида ЯИЖ билан ҳамкорлик, ЯИЖ маблағини олиш учун лойиҳавий таклифлар ишлаб чиқишда миллий ташкилотларга кўмак кўрсатиш, иқлим ўзгаришининг салбий оқибатларини енгиллаштириш ҳамда иқлим ўзгаришига мослашиш бўйича халқаро тажриба ва бошқа масалалар муҳокама этилди.

Мунозаралар давомида иштирокчилар фикр алмашдилар, ОАВ вакиллари саволларига жавоб берилди.

## **Yashiliqlimjamg'armasibilanhamkorlikni rivojlantirish**

2019yil22 mayda O'zbekistonMilliyamatbuotmarkazidaO'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi (O'zgidromet) "Yashiliqlimjamg'armasibilanhamkorlikni rivojlantirish" mavzusidamatbuotanjumanivadavrasuhbatio'tkazdi.

Tadbirning maqsadi Yashil iqlim jamg'armasi (YaIJ) faoliyatini yoritish, YaIJ uchun loyihaviy takliflar ishlab chiqish bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishdan iborat bo'ldi. Matbuot anjumanida respublika manfaatdor vazirlik va idoralari vakillari, olimlar va jurnalsitlar qatnashdi.

Iqlim o'zgarishi zamonamizning asosiy tahdidlaridan biriga aylangan. Jahon meteorologiya tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra kuzatuvlar tarixidagi eng iliq 20 yil so'nggi 22 yilga to'g'ri kelgan. Eng issiq to'rt yil esa oxirgi to'rt yilga to'g'ri kelgan. Iqlim o'zgarishining boshqa yaqqol belgilarini ham kuzatish mumkin, bular – dengiz sathining ko'tarilishi, muzliklarning erishi, Yer kurrasining barcha mintaqalarida kuzatilayotgan ekstremal meteorologik hodisalar (suv toshqinlari, qurg'oqchilik va bosh.). Tabiiy ofatlar xavfining ortishi, hodisalarning misli ko'rilmagan ko'lami ham bunga dalildir. Agar bugun qat'iy choralar ko'rilmasa, iqlim o'zgarishiga keyingi moslashish katta sarf-xarajat va harkatlarni talab qilishi mumkin.

Markaziy Osiyo ham iqlim o'zgaruvchanligining joriy kuchayishi bilan bog'liq, ham global iqlim o'zgarishining uzoq muddatli ta'siriga moyil mintaqa hisoblanadi. O'tgan asrning o'rtalaridan O'zbekistonda iqlim ilishi tendensiyasi kuzatib kelinmoqda va har 10 yilda o'rtacha yillik harorat 0,29 °C ga oshib bormoqda. So'nggi o'n yilliklar davomida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq salbiy hodisalar ko'proq ro'y bermoqda va ular suv resurslari tanqisligining kuchayishi va qurg'oqchilik hodisalarining tez-tez takrorlanishiga olib kelmoqda.

Shu munosabat bilan iqlim o'zgarishi oldini olish va uning kuzatilayotgan oqibatlariga moslashish bo'yicha zarur choralar ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash katta ahamiyat kasb etadi.

Yashil iqlim jamg'armasi (YaIJ) global miqyosdagi tashabbus bo'lib, u kam-uglerodli va iqlimiy barqaror rivojlanishni moliyalashtirish orqali iqlim o'zgarishi masalalarini hal etishga qaratilgan. Jamg'arma rivojlanayotgan mamlakatlarda issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirishga hamda himoyaga muhtoj hamjamiyatlarning iqlim o'zgarishining muqarrar oqibatlariga moslashishga yordam berish maqsadida 2010 yil Kankun shahrida 194 mamlakat hukumatlari tomonidan tashkil qilingan. Bosh qarorgohi Janubiy Koreyaning Songdo shahrida joylashgan.

YaIJ issiqxona gazlarini qisqartirish yoki ularni chiqarishning oldini olish orqali iqlim o'zgarishi oqibatlarini engillashtirish va uning salbiy ta'sirlariga moslashishga qaratilgan loyihalarni ko'rib chiqadi va moliyalashtiradi.

O'zbekistonda YaIJ bilan ishlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi (O'zgidromet) vakolatli organ hisoblanadi. U vakolatlari doirasida YaIJ bilan o'zaro aloqalarni ta'minlaydi, xususan to'g'ridan-to'g'ri moliya olish uchun milliy

tashkilotlarni YaIJda akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha so'rov yuboradi hamda YaIJga taqdim etish uchun davlat manfaatlariga javob beradigan to'liq ko'lamli loyihaviy takliflarni tayyorlash yuzasidan talabnomalarni ko'rib chiqadi.

Hozirgi vaqtga kelib YaIJga taqdim etish uchun 3 ta loyiha tayyorlandi. Ular Milliy moslashish rejasini ishlab chiqish, qishloq xo'jaligini agrometeorologik ta'minlash va iqlimga bog'liq tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish masalalari bilan bog'liq.

Tarmoqlarning iqlim o'zgarishiga moslashishi bo'yicha milliy rejalarni tayyorlash sog'liqni saqlash, qishloq va suv xo'jaligi, tabiiy ofatlar xavfini boshqarish va uy-joy qurilishi energiya samaradorligi borasidagi moslashish chora va harakatlarini o'z ichiga oladi.

Matbuot anjumani va davra suhbatlari doirasida YaIJ bilan hamkorlik, YaIJ mablag'ini olish uchun loyihaviy takliflar ishlab chiqishda milliy tashkilotlarga ko'mak ko'rsatish, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yengillashtirish hamda iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha xalqaro tajriba va boshqa masalalar muhokama etildi.

Munozaralar davomida ishtirokchilar fikr almashdilar, OAV vakillari savollariga javob berildi.

### **Развитие сотрудничества с Зеленым климатическим фондом**

22 мая 2019 года в Национальном пресс-центре Центр гидрометеорологической службы при Кабинете Министров Республики Узбекистан провел пресс-конференцию и круглый стол на тему «Развитие сотрудничества с Зеленым климатическим фондом».

Цель проведения мероприятия – углубление понимания деятельности Зеленого климатического фонда, обсуждение вопросов, связанных с разработкой проектных предложений для ЗКФ. На мероприятии приняли участие представители заинтересованных министерств и ведомств республики, ученые и журналисты.

Изменение климата является одним из основных современных вызовов. По данным Всемирной метеорологической организации (ВМО) 20самых теплых лет в истории наблюдений приходятся на последние 22года, а четыре самых теплых года - на четыре последних года. Сохраняются и другие явные признаки изменения климата, включая повышение уровня моря, таяние морского льда и ледников, и на всех континентах присутствуют разрушительные следы экстремальных метеорологических явлений. Увеличение риска природных катастроф является последствием изменения климата и имеет глобальный характер и беспрецедентные масштабы. Если не предпринять решительных действий сегодня, то последующая адаптация к изменению климата потребует больших усилий и затрат.

Центральная Азия рассматривается, как один из регионов, наиболее уязвимый, как к текущим воздействиям связанным с усилением климатической изменчивости, так и долгосрочным влияниям глобального изменения климата. С середины прошлого века в Узбекистане наблюдается тенденция к потеплению климата и среднегодовые температуры увеличиваются на 0,29<sup>0</sup>С каждые 10 лет. В последние десятилетия происходит все больше и больше негативных явлений, связанных с климатическими изменениями, которые приводят к усилению дефицита водных ресурсов и учащению случаев засухи. В этой связи необходимо развивать и применять практические меры и действия для эффективного предотвращения изменения климата и адаптации к уже наблюдаемым его последствиям.

Зеленый климатический фонд (ЗКФ) является уникальной глобальной инициативой направленной на решение вопросов связанных с изменением климата посредством инвестирования в низко-углеродное и климатоустойчивое развитие. Он был создан на

шестнадцатой Конференции сторон Рамочной конвенции ООН об изменении климата в 2010 году в г. Канкуне при участии правительств 194 стран в целях сокращения выбросов парниковых газов в развивающихся странах, а также для содействия процессу адаптации уязвимых сообществ к неизбежным последствиям изменения климата. Его головной офис расположен в г. Сонгдо, Южная Корея.

ЗКФ рассматривает и финансирует проекты, которые нацелены на смягчение последствий изменения климата посредством сокращения или предотвращения выбросов парниковых газов или на адаптацию к изменению климата посредством приспособления к негативным климатическим воздействиям и условиям.

Национальным уполномоченным органом для работы с ЗКФ в Узбекистане является Центр гидрометеорологической службы при Кабинете Министров (Узгидромет). В рамках своих полномочий, Узгидрометобеспечивает взаимодействие с ЗКФ, в частности предоставляет запрос на аккредитацию национальных организаций для получения прямого доступа к финансированию на рассмотрение в ЗКФ и рассматривает проектные заявки для подготовки полномасштабных проектных предложений для подачи в ЗКФ, отвечающих интересам страны. В настоящее время для подачи в ЗКФ подготовлено 3 проекта, касающиеся вопросов разработки Национального адаптационного плана, агрометеорологического обеспечения сельского хозяйства и снижения риска климатозависимых стихийных бедствий.

Подготовка отраслевого Национального адаптационного плана будут сориентирована на адаптационные меры и действия в здравоохранении, сельском и водном хозяйстве, управлении рисками стихийных бедствий и энергоэффективности жилищного строительства.

В рамках пресс-конференции и круглого стола были обсуждены вопросы сотрудничества с ЗКФ, оказания помощи национальным организациям при разработке проектных предложений для ЗКФ; международный опыт по вопросам смягчения негативных последствий изменения климата и адаптации к изменению климата, и другие.

Специалисты обменялись мнениями, ответили на вопросы представителей СМИ.







